

**XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA  
ADABIY MUHIT VA MATBAA**

*Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi  
Namangan davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xiva xonligining ijtimoiy va ma’naviy hayoti , undagi o’zgarishlar ahamiyati, Xiva xonligidan xabar beruvchi kitoblar tahlili hamda xonlarning madaniy hayotga qanday tasir etishi to’g’risida atroficha tahlil etilgan.

**Kalit so’zlar:** Xiva xonligi, Feruz, Shashmaqom, nota, Muhammad Rahimxon II, «Xorazm chizig‘i», «Majmuai shuaroi Feruzshohiy», bosmaxona, adabiyot.

**ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА И ТИПОГРАФИЯ В ХИВИНСКОМ  
ХАНСТВЕ В КОНЦЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВЕКА**  
**Абдурахманова Назокат дочь Давлатбоя**  
**Студент Наманганского государственного университета**

**Аннотация.** В данной статье подробно анализируется общественная и духовная жизнь Хивинского ханства, значение перемен в ней, анализ книг, сообщающих о Хивинском ханстве, а также влияние ханов на культурную жизнь.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, Феруз, Шашмаком,nota, Мухаммад Рахим-хан II, «Хорезмская линия», «Маджмуай Шуарой Ферузшахи», типография, литература..

**LITERARY ATMOSPHERE AND PRINTING IN THE KHIVA KHANATE  
AT THE END OF THE XIX-BEGINNING OF THE XX CENTURIES**  
**Abdurahmanova Nazokat Davlatboy's daughter**  
**Student of Namangan State University**

**Abstract.** In this article, the social and spiritual life of the Khiva khanate, the importance of changes in it, the analysis of the books reporting on the Khiva khanate, and the influence of the khans on the cultural life are analyzed in detail.

**Keywords:** Khanate of Khiva, Feruz, Shashmaqom, nota, Muhammad Rahim Khan II, "Khwarezm line", "Majmai shuaroi Feruzshohiy", printing house, literature.

XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida Xiva xonligi madaniy hayotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Chunki bu davrda Rossiya mustamlakasi ostiga tushib qolgan Xiva xonligi hududi, aholi soni jihatdan qisqargan, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalari cheklangan va faqatgina Rossiya orqali ularni amalga oshirilishi belgilangan vaziyatda edi. Bunday tarixiy vaziyat, albatta, madaniy muhitda ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmay qolmasdi. Mazkur muhit madaniy hayoti haqida ko‘plab adabiyotlar mavjud bo‘lib, quyida biz ulardagi ayrim ma'lumotlarni umumlashtirilgan tarzda keltirib o‘tamiz.

Xiva xonligidagi o‘zgarishlar, turli hududlarida joylashgan xalqlar mamlakat madaniy hayoti taraqqiysida o‘ziga xos o‘rin tutganlar[1.]. Bu davrdagi madaniy hayot rivoji, bevosita, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1864-1910) faoliyati bilan bog‘liq. U madaniyat homiysi sifatida nom chiqarishi qatorida «Feruz» taxallusi ostida she’rlar yozib, o‘z devoniga ega shoir bo‘lgan. Muxammad Rahimxon II o‘z davri madaniy hayotining ayrim jihatlarida an'anaviylikka berilishidan qat’iy nazar, yangliklar tarafdoi ham edi[2.].

U tarixchi, shoir, san'at, adabiyot ham musiqa homiysi va bilimdoni, siyosiy arbob sifatida iz qoldirdi. Uning rahnamoligida mingdan ortiq qo‘lyozmalar ko‘chirildi, yuzdan ortiq asarlar arab va fors tillaridan eski o‘zbek tiliga tarjima qilindi. She’riy ijodkorlik va kitobxonlik davlat siyosati miqyosiga ko‘tarildi. Muhammad Yusuf Bayoniy (1858-1923) va Hasan Madaminov ma'lumotlariga ko‘ra, Rossiya bosqinidan so‘ng Feruz tushkunlik kayfiyatiga berilib xonanshpin bo‘lib qoladi. Mana shunday sharoitda saroyning ko‘zga ko‘ringan ziyolilaridan biri, shoir va kompozitor Komil Xorazmiy (1825-1899) va boshqa mansabdorlar Muxammad Raximxonga she’riyat va musiqa kechalari uyushtirishni taklif qiladilar: «Muhammad Raximxon soniy Xorazm o‘lkasida o‘zidan boshqa kuchli va nufuzli yet bir quvvatni ko‘rgach, bir xili zamonlar muttaasir bo‘lib yurdi. O‘zini tasalli qilajak hech bir mashg‘ulot topmoqdin ojiz edi.

Biroq oning atrofidagi odamlar, xususan musiqashunos Paxlavonniyoz Mirzaboshi xonning bu xolini anglab, oni majlislar tuzmakka qiziqtirdi. Nihoyat, xonni musiqiy bazmlarini uyushtirib, natijada «Xorazm chizig‘i» maydonga chiqib, Xorazm musiqasi xiylagina rivoj bo‘lub xalq orasina intishor etmakka boshladidi. «Xorazm chizig‘i» esa Komil Xorazmiy boshchiligidida musiqani ifodalash uchun tuzilgan nota edi[3.]. Keyinchalik, XX asr boshlarida Komil Xorazmiyning o‘g‘li Muhammad Rasul mirzo (1850-1923) Xorazm «Shashmaqom»ini yetti maqomda tanburga moslab notaga tushirgan[4].

Shundan so‘ng Feruz xonlikdagi har bir iqtidorli, ilmi kishiga g‘amxo‘rlik qilib, saroyda ilmiy suhabat va mushoiralar o‘tkaza boshladidi. Natijada «Har kishining she’r aytmoqg‘a sahl qobiliyati bo‘lsa, nav'i she'rlarni aytib dargohi oliyg‘a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam-besh qirqg‘a yovuq bordi»[5.]. Feruz iqtidorli shoir bo‘lgani tufayli huzuriga kelgan shoirlarning bilim darajasini tekshirib, mahoratini tez va yaxshi anglab, ularni bayoz va devonlar tuzishga rag‘batlantirar edi. 1908 yili Xiva hukmdori Muhammad Raximxon II saroyiga turkiyshunos olim A.N.Samoylovich (1880-1938) tashrif buyuradi. U Muhammad Rahimxon Feruz bilan uchrashib, uni shunday tasvirlaydi: xozirda hukmdor bo‘lib turgan Sayid Muhammad Rahim ma'rifatli shaxsdir. U fan va san'at xomiysi xisoblanib, bu mamlakatni o‘rganishimga astoydil yordam berishini izhor qildi. Xiva xoni hatto o‘zining shaxsiy kitob xazinasi bilan tanishishimga xam ruxsat berdi. Men uning Arkva Tozabog‘dagi kutubxonalarida bo‘ldim. Turkiy tildagi qo‘lyozmalarga asosiy e’tiborimni qaratdim. Ikki marta Tozabog‘dagi xon bosmaxonasini ko‘zdan kechirdim. Demak, Muhammad Rahimxon homiyligi sababli Bayoniy, Komyob, Laffasiy (1898-1942), Avaz O‘tar (1884-1919), Mutrib Xonaxarobiy (1860-1923), Muxammadyusuf Xarratov-Chokar (1889-952), Ilyosmulla Muxhammad o‘g‘li-So‘fi

(1860-1916) kabi tarixchi va taraqqiyatparvar shoirlar yetishib chiqdilar. Ularning asarlarida eski adabiyotimizga xos an'anaviylik va madxiyabozlik yo'nalishiga amal qilish bilan birga, mavjud tuzum illatlari, xon amaldorlari, boylarning zo'ravonligi va poraxo'rliklarini xalqqa fosh etib, yangi tuzumga, yangi hayot, taraqqiyot va istiqlolga umid uyg'ota bildilar[6].

XIX asr so'nggi choragiga kelib Xiva xonligi adabiy muhitida, Muhammad Raximxon Feruz saroyida ijod qilgan shoirlar asarlari tahlili shuni ko'rsatadaki, ular ijodida an'anaviylik, madhiyabozlik yo'nalishidagi she'riy asarlar ko'plab uchraydi. Masalan, 1324/1906-1907 yili Muxammad Rahimxon II ko'rsatmasiga binoan Ahmad Tabibiy (1868-1910) tomonidan «Majmuai shuaroi Feruzshohiy» nomli she'riy to'plam tuziladi. U dastlab toshbosma usulida nashr etiladi, so'ng qo'lyozma holida ko'chiriladi. Majmuaning toshbosma nashriga A.N.Samoylovich taqriz yozadi. Bu bayozga Xiva saroyidagi o'ttizdan ortiq shoirlar she'rlari kiritilgandi. Ayni she'rlar Muxammad Rahimxon II-Feruz g'azallariga ergashib, payrov tarzida eski o'zbek tilida bitilgan.

Muhammad Rahimxon II saroyi shoirlariga o'zining 101 g'azaliga ergashib javob she'r yozishni buyuradi va ular buni amalga oshiradilar. 30 shoirning javob g'azallari 2998 donani tashkil etadi. «Majmuai shuaroi Feruzshohiy» bayozidagi she'rlarning umumiy miqdori 3099 ta g'azaldan iborat. Bu shoirlar Feruzning har bir g'azaliga ergashib g'azal yozganlarida, asos she'rning uslubi, radifi va qofiyasini saqlashlari lozim edi.

Majmuadagi payravda ishtirok etgan shoirlar Feruzning qarindoshlari, shahzodalar va Xiva saroyidagi mansabdorlar edilar. Ayni vaqtida, ishtirokchi shoirlar an'anaviy adabiyotni rivojlantirish yo'lidan ketganlar. Umuman olganda, yangiliklarga intilish qatorida, an'anaviy qadriyatlarga e'tibor qaratish Xiva xonligi muxitiga xos edi.

Xiva xonligida O'rta Osiyodagi dastlabki toshbosma kitoblar chiqarishning yo'lga ko'yilishi ham ko'rib chiqayotgan davrga to'g'ri keladi. Sharqda birinchi matbaa 1832 yil Eronda paydo bo'lgan edi. Shuning uchun Erondan Ibrohim Sulton nomli matbaachi Xiva saroyiga ishga taklif etiladi. Ibrohim Sulton mahalliy yoshlardan Otajon Abdalovga matbaachilik sirlarini o'rgatadi, 1874 yildan boshlab ba'zi xujjatlar toshbosma usulida chop etila boshlaydi. 1876 yilda Abu Nasr Farobiyning «Nisob assibyon» (Bolalar nasibasi) nomli falsafiy asari toshbosmada chop etilgan. Feruz Otajon Abdalovga Muhammad va Xudoybergan xarrot, Xudoybergan muhrkan, Ismoil devon va Komil devon kabi taraqqiyatparvar kishilarni yordamchi qilib qo'yadi.

Xiva matbaasida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida chop etilgan tarixiy, adabiy-ilmiy asarlar Xiva xonligidagi maorif va fanrivojiga katta hissa qo'shgan. Feruz kitobat san'atiga katta ahamiyat berib, kutubxonalar tashkil etdi. Bu haqda Bayoniy: «Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar... sipohiyalar va to'ralarni ham kitobxonliq etarg'a targ'ib etar erdilar. Bas, xamma kitobxon bo'ldilar... tamomi viloyat xalqi kitobxon bo'ldilar», -deb yozadi. Muxammad Rahimxon Feruz xattotlarning mehnatini g'oyat qadrlab, ular uchun maxsus sharoit yaratib bergan.

Feruz saroyida xattotlar mehnati qadrlanar va ularga nodir asarlarni ko‘chirish vazifasi muntazam topshirib turilardi. Tadqiqotchi A.Murodov XIX asrda Xivada yashab o‘tgan 87 xattot haqida ma'lumot beradi. Tadqiqotchi E.Ismoilovaning yozishicha: «XIX asrning ikkinchi yarmidagi Xiva qo‘lyozmalari o‘zining go‘zal arxitektonikasi, hajmi, matn va hoshiyalarining o‘ta mutanosibligi, yozuvining toza, tekis, hushxatligi, misralarning bir-biriga mosligi va varaqsagi barcha lozim elementlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Xiva qo‘lyozmalarining boshqa qo‘lyozmalardan farqli tomoni ular tashqi qiyofasida namoyon bo‘lib, bu qo‘lyozma kitoblar salobatli naqsh bosilgan qora charm muqovalari bilan ajralib turadi. Butun O‘rta Sharqda ularning monandi o‘sha davrdaedi».

A.N.Samoylovich saroydagi madaniy muhit, jumladan, xon kutubxonasidagi kitoblar bilan tanishganligi, ayniqsa, arkdagisi va Tozabog‘dagi xonning maxsus kutubxonasida ajoyib kitob va qo‘lyozmalar mavjudligini alohida ta'kidlaydi.

Bulardan tashqari Xiva xonligidagi tarixnavislik o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Xiva xoni Abulg‘ozixon (1643-1663) o‘z vaqtida boshlab bergan turkiy tilda tarixiy asarlar yozish an'anasi Munis va Ogahiyilar tomonidan, keyinchalik esa, XIX asr so‘nggi – XX asr boshida Bayoniy, Komyob va boshqa ko‘plab tarixchilar tomonidan davom ettirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX asr oxir – XX asr boshlarida Xiva xonligida adabiy muhit rivoj topdi. Bu rivojlanishda ma‘rifatli hukmdor Muhammad Rahimxon II Feruzning o‘rni beqiyos bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan O‘rta Osiyoda birinchi bosmaxona tashkil etildi va ko‘plab asarlar bosmadan chiqarildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Polvonov N. XXasr boshlarida Xiva xonligining aholi tarkibi va uning joylashgan o‘rni // O‘zbekiston milliy atlasini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2009. 6-7 may. –B. 189-191.
2. Erkinov A. Polvonov N. Aminov H. Muhammad Rahimxon II-Feruz kutubxonasi fehristi. –Toshkent:Yangi asr avlod. 2010. –B. 6.
3. Matyaqubov O., Boltaboev R., Aminov R. O‘zbek notasi.Toshkent. 2007. –B. 43.
4. Qobulov N. Mo‘minova V. Haqqulov I. Avaz va uning adabiy muhiti. –Toshkent: Fan. 1987. –B. 14.
5. Bayoniy Muhammadyusuf. Shajarayi Xorazmshoxiy // Meros. Toshkent. 1991. –B. 256.
6. Erkinov A. Polvonov N. Aminov H. Muhammad Rahimxon II-Feruz kutubxonasi fehristi. –Toshkent:Yangi asr avlod. 2010. –B. 9.